

UDK 632.

O'RIKDA UCHRAYDIGAN KASALLIKLARNING TUR TARKIBI TARQALISHI VA ZARARI

Qilicheva Dilbar Normurodovna, (PhD) tayanch doktorant

Abstract: *Today, the need for apricots in our republic is increasing every year. Effective and timely control of pests and diseases is very important to get a high yield from apricot trees. This article provides information about the damage caused by the spread of diseases of the apricot tree*

Key words: *Apricot damage type food disease*

So'ngi yillarda respublika aholisini mevaga bo'lgan talabini qondirish maqsadida hamda yetishtirilayotgan mevalarni bir qismini chet davlatlariga eksport qilishi uchun turli Yevropa va Osiyo davlatlaridan mevali daraxt ko'chatlari olib kelinib, intensiv bog'lar barpo etilmoqda. Bu esa respublikada uchramaydigan karantin kasalliklarni kelib qolishiga imkoniyat bo'lmoqda. O'rik bog'larda uchraydigan kasalliklarni tur-tarkibini aniqlash maqsadida akademik M.Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutining Toshkent va Samarqand viloyatlarida ilmiy-tajriba stansiyalari o'rik bog'larida yo'nalishli kuzatuvlar olib borildi.

Olib borilgan kuzatuvlar natijasida Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanida joylashgan Bo'stonliq tog' ilmiy-tajriba stansiyasining o'rikning Subxoniy navida hamda Samarqand viloyati, Samarqand ilmiy-tajriba stansiyasining o'rik bog'laridagi o'rikning Ko'rsodiq navlaridagi kasalliklar bilan zararlangan a'zolaridan namunalar laboratoriyaga olib kelindi va laboratoriya sharoitida nam kameraga ekilib termostatga qo'yildi. Kasallik qo'zg'atuvchi zamburug'larning tur tarkibi mikroskop yordamida aniqlab topildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, olib kelingan kasallangan o'rik daraxtlarining (barg, novda va meva) a'zolaridan asosan klyasterosporioz (*Clasterosporium carpophilum* Lev), monilioz (*Monilinia cinerea*) va un shudring (*Sphaerotheca pannosa* var. Woron) kabi kasalliklarni qo'zg'atuvchi zamburug'lar laboratoriya sharoitida aniqlandi va ayrim turlarning bioekologik xususiyatlari o'rganildi. Laboratoriya natijalariga ko'ra, o'rik bog'larida kasallik qo'zg'atuvchi 3 ta sinf va 3 ta oilaga mansub 3 ta zamburug' turlari zararlashi aniqlandi (1-jadval).

O'rik bog'larida uchraydigan asosiy kasalliklarning tur tarkibi

(Laboratoriya tajribasi, akademik M.Mirzayev nomidagi BU va VITI, O'simliklarni himoya qilish va karantin laboratoriyasi, 2024 yil.)

T/r	Kasallik nomi	Kasallik qo'zg'atuvchi zamburug' turi	Sinifi	Bo'limi	Oilasi
1.	Klyasterosporioz	<i>Clasterosporium carpohilum</i> Lev	Hyphomycetes	Hyphomycota	Moniliaceae
2.	Monilioz	<i>Monilinia cinerea</i>	Euascomycetes	Ascomycota	Sclerotiniaceae
3.	Un shudring	<i>Sphaerotheca pannosa</i> var. Woron.	Leotiomycetes	Ascomycota	Erysiphaceae

Respublika sharoitida o'rik bog'larida uchraydigan kasalliklar tarqalishini aniqlash maqsadida 2023-yil akademik M.Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti Toshkent va Samarqand viloyatlarida ilmiy-tajriba stansiyalari o'rik bog'larida yo'nalishli kuzatuvlar olib borildi. Olib borilgan kuzatuvlarga ko'ra, 2023-yilda akademik M.Mirzaev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot Bo'stonliq tog' ilmiy-tajriba stansiyasi o'rik bog'larida Subxoniy navidan jami 40 dona, shundan, monilioz kasalligigi bilan zararlangan daraxtlar soni 9 donani tashkil etdi. Kasallikning tarqalishi esa 22,5% gacha yetgani kuzatildi. Shuningdek, o'rikning Shalax navida ham kuzatuvlar olib borilganda monilioz kasallikning tarqalishi 15,1 % gacha yetganligi kuzatildi Samarqand viloyatida joylashgan Samarqand ilmiy-tajriba stansiyasi o'rik bog'larida Ko'rsodiq navida ham monilioz kasallikning tarqalishi bo'yicha monitoring ishlari olib borilganda, bunda 1 qatorda sanalgan daraxtlar soni jami 40 dona, shundan, zararlanganlari esa 11 donani va kasallikning tarqalishi 27,6% ni tashkil etdi. Shuningdek, o'rikning Isfarak navidan 40 dona daraxt sanab chiqildi, shundan, monilioz kasalligigi bilan zararlangan daraxtlar soni 13 donani tashkil etgan bo'lsa, kasallikning tarqalishi 32,5% gacha kuzatildi. Yuqoridagi kuzatuvlar olib borilgan

o‘rik navlarida ko‘rinib turibdiki eng ko‘p monilioz kasalligigi bilan zararlangan o‘rik navlari Samarqand ilmiy-tajriba stansiyasi o‘rik bog‘laridagi Ko‘rsodiq va Isfarak navlarida ko‘zatildi (2-jadval).

2-jadval

O‘rik bog‘larida uchraydigan monilioz kasalligining tarqalishi					
Dala tajribalari (Samarqand va Bo‘stonliq tog‘ ilmiy-tajriba stansiyasilari, 2024 yil)					
Tadqiqot olib borilgan joy nomi	Maydoni, ga	Navi	Sanalgan daraxtlar umumiy soni, dona	Zararlangan daraxtlar soni, dona	Kasallik tarqalishi, %
Bo‘stonliq tog‘ ilmiy-tajriba stansiyasi	0,5	Subxoniy	40	9	22,5
	0,2	Shalax	40	6	15,1
Samarqand ilmiy-tajriba stansiyasi	0,8	Ko‘rsodiq	40	11	27,6
	0,5	Isfarak	40	13	32,5

O‘rik bog‘larida klyasterosporioz kasalligining tarqalishi va zararini aniqlash yuzasidan yuqorida qayd etilgan hududlarda yo‘nalishli kuzatuvlar olib borildi . Kuzatuv natijalarga ko‘ra, akademik M.Mirzayev nomidagi BUVITI Bo‘stonliq tog‘ ilmiy-tajriba stansiyasi o‘rik bog‘larida Subxoniy navidan zararlanish barglarda 23,1% va mevalarda esa 19,2% ni ko‘rsatdi. Kasallikning rivojlanishi esa 2,6% va 4,6% gachani tashkil etdi.Shuningdek, Shalax navida esa zararlangan daraxt a‘zolari zararlanish barglarda 27% gacha va mevalarda 24% gacha qayd etildi. Kasallikning rivojlanishi esa mos ravishda 3,7% va 5,8% gacha etdi.Samarqand viloyatida joylashgan Samarqand ilmiy-tajriba stansiyasi o‘rik bog‘larida Ko‘rsodiq navida klyasterosporioz kasalligining tarqalishi bo‘yicha monitoring olib borildi. Klyasterosporioz kasalligi bilan zararlanish barglarda 18% gacha va mevalarda esa 17,2% gacha etdi. Kasallikning rivojlanishi esa 9,1% va 8,1% gachani tashkil etdi Shuningdek, o‘rikning Isfarak navi o‘rganilganda 24% barglar va 22,6 % gacha mevalarida klyasterosporioz kasalliklar bilan zararlangan bo‘lsa, kasallik rivojlanishi 4,8% va 4,5% gachani tashkil etdi (3-jadval).

3-jadval

O‘rik bog‘larida uchraydigan klyasterosporioz kasalligining tarqalishi					
Dala tajribalari (Samarqand va Bo‘stonliq tog‘ ilmiy-tajriba stansiyasilari, 2024 yil)					
Tadqiqot olib borilgan joy nomi	Maydoni, ga	Navi	Zararlangan o‘simlik a‘zolari	Zararlanish , %	Kasallik rivoji, %

Bo'stonliq tog' ilmiy-tajriba stansiyasi	0,5	Subxoniy	barg	23,1	4,6
			meva	19,2	3,7
	0,2	Shalax	barg	27	5,8
			meva	24	4,8
Samarqand ilmiy-tajriba stansiyasi	0,8	Ko'rsodiq	barg	18	9,1
			meva	17,2	8,1
	0,5	Isfarak	barg	24	4,8
			meva	22,6	4,5

XULOSALAR

1. O'rik daraxtlarining (barg, novda va meva) a'zolarida asosan klyasterosporioz (*Clasterosporium carpophilum* Lev), monilioz (*Monilinia cinerea*) va un shudring (*Sphaerotheca pannosa* var. Woron) kabi kasalliklar zarar keltirishi kuzatuvlar va laboratoriya tadqiqotlarida aniqlandi. *C. carpophilum* L. va *M. cinerea* zamburug'lari rivojlanishi va kulturalariga kartoshka-dekstrozali agar va Chapek ozuqa muhitlarining ta'siri turlicha ekanligi aniqlandi.

2. Toshkent va Samarqand viloyatlarida o'rikning Subxoniy, Shalax, Ko'rsodiq va Isfarak navlarining monilioz kasalligiga chidamliligi o'rganilganda, Ko'rsodiq va Isfarak navlari monilioz kasalligiga yuqoridagi o'rik navlariga qaraganda kuchli zararlanganligi (27,6 va 32,5%) kuzatuvlarda aniqlandi.

3. Shuningdek, o'rikning Subxoniy va Isfarak navlari boshqa navlarga qaraganda klyasterosporioz kasalligi bilan ko'proq zararlanganligi kuzatildi. Ushbu navlarda kasallik rivojlanishi joriy yilda 3,7% dan 4,8% gachani yetganligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[Internet saytlari](#)

1. https://leto.ua/article/abrikos_posle_monilioza
2. <https://ogorod.ua/monilioz-abrikosa-priznaki-porazheniya>
3. https://osimliklarni_himoya_qilish #IPM
4. <https://shans-group.com/vredne-obekty/bolezni/klyasterosporioz-ili->